



QOBILIYAT VA IQTIDOR RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Jo'raboyeva Madina

Annotatsiya: Ushbu tezis qobiliyat va iqtidor tushunchalarini psixologik, pedagogik va ijtimoiy nuqtai nazardan o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda qobiliyat va iqtidorning mohiyati, ularning shakllanishi, rivojlanishi va individual xususiyatlarga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, iqtidorli shaxslarni aniqlash metodlari, ularni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish strategiyalari ham ko'rib chiqiladi. Tezis shaxsning ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyatga erishishida qobiliyat va iqtidorning o'рни va ahamiyatini yoritadi. Shu bois, qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish masalasi ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va shaxsiy taraqqiyotning asosiy masalalaridan biridir.

Kalit so'zlar: qobiliyat, iqtidor, psixologik, pedagogik, strategiya, ijtimoiy, kasbiy, rivojlantirish.

Kirish

Insoniyat taraqqiyotida qobiliyat va iqtidor muhim rol o'ynaydi. Har bir shaxsning ijodiy va intellektual salohiyati uning hayotiy muvaffaqiyatini belgilashda asosiy omil hisoblanadi. Qobiliyat insonning ma'lum bir faoliyat turida samarali ishlash imkoniyatini beradi, iqtidor esa yuqori darajadagi qobiliyat va ijodiy salohiyatni ifodalaydi. Zamonaviy jamiyat shaxsning bilim, ko'nikma va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi, chunki bu jamiyatning ilmiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilangan. Ushbu tezisning maqsadi - qobiliyat va iqtidorni aniqlash, ularni shakllantirish va rivojlantirish omillarini o'rganish, shuningdek, iqtidorli shaxslarni aniqlash va rag'batlantirishning amaliy yo'llarini taklif qilishdir.



Dunyo shunchalik tez sur'atlarda rivojlanmoqdaki, har bir sohada yangiliklar, innovatsiyalar bo'lmogda. Shunday globallashuv zamonida olimlar barcha sohalarda tadqiqotlar olib bormogda va yangiliklar bilan bo'lishmogda. Ushbu bir qator tadqiqotlar tarkibiga qobiliyat va uning shaxsda rivojlanishini o'rganish muammosi ham kiradi. Bola endigina unib chiqqan niholdir. Uning to'g'ri va chiroyli o'sishi kattalar zimmasida bo'ladi. Bola o'zining qo'lidan keladigan qobiliyatidan, boshqalarga o'rnak bo'la olishi mumkin bo'lgan iste'dodidan mamnun bo'lishi lozim. Bunda unga motivatsiya kerak bo'ladi. O'qituvchi bolada ta'lim mazmuni va o'quv jarayoni bilan bog'liq motivlarni shakllantirishga harakat qilishi lozim. Bola topshiriqlarni bajarish paytida intellektual faollik namoyish etishga, tafakkur orqali mushohada yuritishga, o'quv jarayonidagi topshiriqlarni bajarish chog'idagi qiyinchiliklarga qarshi o'z bilimini ishlatishga harakat qiladi. Kattalarning e'tibori, mehri, ruhiy daldasi kelajakda bolaning Vatanimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shadigan komil shaxs bo'lishiga xizmat qildi. Qobiliyatlarimiz, asosan, faoliyatda namoyon bo'ladi. Maxsus qobiliyatga ega bo'lgan bolalarda ular kichikligidayoq ko'p narsalarga qiziqishi, tinmay savol berishida ularning harakatchanligi namoyon bo'ladi. Do'stlari bilan o'yinchoqlarni o'ynayotganida, ulardan qanday foydalanish, qanday shakllarni ishlatishda, biror bir narsani sinchiklab tekshirib qiziqishida ham qobiliyat uchqunlari ko'rina boshlashi mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishga nisbatan qiziqish yuqori bo'ladi. Ulardan qaysidir bola tasavvurlar orqali rasm chizishga, qaysidir biri esa, musiqa asboblarini chalishdagi o'ziga xoslikka, yo she'r o'qish, raqs tushish kabi faolliklari bilan o'zlarini ko'rsatishi mumkin. Ana shunday vaqtda, o'qituvchi-pedagog ularning qobiliyatini to'g'ri baholay olishi, to'g'ri yo'nalish berishi, qo'llab-quvvatlashi lozim.

Qobiliyat - bu shaxsning ma'lum faoliyat sohasida samarali ishlash imkonini beruvchi psixologik xususiyatlar to'plami. Qobiliyat turli turlarga bo'linadi:



Umumiy qobiliyat - har qanday faoliyatda qo'llaniladigan intellektual va ijodiy imkoniyatlar.

Maxsus qobiliyat - muayyan sohada, masalan, matematikada yoki san'atda ishlash imkonini beradi.

Professional qobiliyat - kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar.

Ijodiy qobiliyat - yangi g'oyalarni yaratish, murakkab muammolarni hal etish va innovatsion yechimlar topishga qodirlik.

Qobiliyat insonning ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi muvaffaqiyatining asosiy omili sifatida ko'riladi. Shu sababli, uning shakllanishi va rivojlanishi jamiyat va ta'lim tizimi uchun muhimdir. Iqtidor - bu yuqori darajadagi qobiliyat va ijodiy salohiyatni o'zida mujassam etgan shaxsiy xususiyat. Iqtidorli shaxslar murakkab masalalarni tez va samarali hal qila olishadi, yangiliklar yaratishadi va o'z sohasida yetakchilik qiladi. Iqtidor genetik omillar, ijtimoiy muhit, tarbiya va shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishi orqali shakllanadi. Iqtidorli shaxslarni aniqlash uchun psixologik testlar, pedagogik kuzatuvlar, ijodiy va ilmiy loyihalar, shuningdek, kompetensiyalarni baholash metodlari qo'llaniladi. Shaxsning iqtidorini ochish va rivojlantirish jarayoni uzluksiz va individual yondashuvni talab qiladi.

Iqtidor esa qobiliyatning yuqori darajasi bo'lib, u shaxsni odatiy natijalardan yuqori natijalarga yetaklaydi. Iqtidorli shaxslar odatda yangi g'oyalarni yaratish, murakkab vazifalarni tez va samarali hal etish, shuningdek, o'z sohasida innovatsion yondashuvlarni qo'llashga qodir bo'ladi. Iqtidor va qobiliyatni rivojlantirish shaxsiy harakatlar, motivatsiya, muloqot va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir.

Umuman olganda, qobiliyat va iqtidor shaxsning o'z salohiyatini amalga oshirish va jamiyatda muvaffaqiyat qozonishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qobiliyat



insonning turli sohalarda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini belgilasa, iqtidor ushbu imkoniyatni maksimal darajada ro'yobga chiqaradi. Shu bois, ta'lim va tarbiya jarayonlarida qobiliyat va iqtidorga e'tibor qaratish, ularni aniqlash va rivojlantirish uchun shaxsiy, pedagogik va psixologik yondashuvlarni qo'llash muhimdir. Shuningdek, ijtimoiy muhit va oilaviy qo'llab-quvvatlash ham shaxsning qobiliyati va iqtidorini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa: Iqtidorli bolalar boshqa bolalarga nisbatan har bir ta'lim tizimida ajralib turadi. Bu uning o'zi qiziqayotgan sohaga salohiyati yuqoriligini bildiradi iqtidorli bolalarning asosiy belgilari bu bajarayotgan harakatni "Men bajara olaman" deb o'ziga katta ishonch berishidir. Bundan tashqari ta'lim jarayonida agarda unga psixologlar va o'qituvchilar tomonidan motivatsiya berilsa, u holda bola o'z ustida ko'proq ishlaydi, bu degani ozgina kamchiliklarga ko'z yumgan holda "Sen buni uddalay olasan" kabi motivatsiyalar, ishonch berilsa, bolada yanada qiziqish ortib, u keyingi safar inson aqli shoshadigan ixtirolar qilishi mumkin. Agarda ko'p tanbehlar berib ishonchsizlik bildirilsa, bola tushkunlika tushib qiziqishlari so'nib borishi mumkin. Lekin albatta shu iqtidor umri mobaynida yuzaga chiqarilmasa ham saqlanib qoladi. Hozirgi ayni vaqtda zamonaviy psixologlar ushbu masalani ijobiy hal qilgan holda bolaning qiziqishini ta'lim muassasida turli metodlar orqali aniqlab va natijalar asosida ularga yo'l-yo'riqlar ko'rsatib kelinmoqda. Test natijalari asosida bolaning qaysi sohaga bo'lgan qiziqishi, iqtidori yuqori bo'lsa shu sohani tanlash maslahat beriladi, shu asosida qobiliyatini namoyon qila olmaydigan bolalar ham o'zlarini test orqali namoyon qilishi mumkin. Iqtidorli bolalar boshqa sohalarga qaraganda o'z tanlagan sohasini orqali ko'proq muvaffaqiyatga erishadi.

Qobiliyat insonning turli sohalarda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini belgilasa, iqtidor ushbu imkoniyatni maksimal darajada ro'yobga chiqaradi. Shu bois, ta'lim va tarbiya jarayonlarida qobiliyat va iqtidorga e'tibor qaratish, ularni aniqlash va rivojlantirish uchun shaxsiy, pedagogik va psixologik yondashuvlarni



qo‘llash muhimdir. Shuningdek, ijtimoiy muhit va oilaviy qo‘llab-quvvatlash ham shaxsning qobiliyati va iqtidorini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdullayev.O “Psixologiya asoslari”. Toshkent: Universitet nashriyoti. 2018.
2. Nazarova Z.X. “O‘spirin bokschilarning sport yutuqlari natijasida erishgan toifalarida motivatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari” - Toshkent: 2024.
3. G‘aniev.Sh “Inson qobiliyatlari va iqtidori”. Toshkent: Ta’lim nashriyoti. 2016.
4. Islomov.R. Iqtidorli shaxslarni aniqlash va rivojlantirish. Toshkent: Pedagogika. 2020.
5. Sternberg.R. Wisdom, Intelligence, and Creativity Synthesized Cambridge University Press. 2003.
6. Vigotsky. L. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes Harvard University Press. 1978.